

**“HAYOT XAVFSIZLIGI ASOSLARI” KURSI MAVZULARINING FANLARARO BOG‘LANISH TAMOYILLARI VA USULLARI**

**Qo‘chqarov Ilhomjon Basirovich**

**Farg‘ona Davlat universiteti mustaqil izlanuvuvchisi**

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda bir qator predmetlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitishning vositalari bilan ta‘minlanishi kerak.

**Kalit so‘zlar:** didaktik, idrok, g‘oya, pedagog, qonuniyat.

**Abstract:** Currently, the development and testing of an integrated system of lessons, where the establishment of connections between common concepts for a number of subjects is a psychological and methodological basis, is of urgent importance. At the same time, interdisciplinary relations should be taught at the level of the curriculum and provided with the necessary teaching tools.

**Key words:** didactic, perception, idea, pedagogue, law.

**Аннотация:** В настоящее время актуальна разработка и апробация целостной системы уроков, где установление связей между общими для ряда предметов понятиями является психологической и методической основой. В то же время междисциплинарные связи должны преподаваться на уровне учебной программы и быть обеспечены необходимыми средствами обучения.

**Ключевые слова:** дидактика, восприятие, идея, педагог, право.

Tekshirish davomida o‘quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar, integratsiyalash uchun fanlarning ma‘qul birlashishi, mashg‘ulot o‘tuvchi va tinglovchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmunan mos bo‘lgan metod va usullarni qo‘llash ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quv fanlararo aloqadorlik ta‘minlangan sharoitda o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O‘quv fanlariaro aloqadorlikni turli o‘quv predmetlari bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta‘minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal sur‘atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo‘ymoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta‘lim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o‘zaro aloqadorlikda eng zarur bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm-fanning turli sohalarini uchun muhim bo‘lgan bilimlarni o‘quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

O‘quv fanlariaro aloqadorlik dars mavzularining mazmunini o‘rganish, undagi muhim qoidalarni ajratib olib o‘zlashtirishda quyidagi jarayonlarni faollashtirish imkoniyatini beradi:

- o‘quv mavzularini o‘rganish jarayonida o‘quv fanlariaro aloqadorlik holatini aniqlashga subyektiv yondashish ehtimolini pasaytirish;
- fanning muhim g‘oyalarini ochib berishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv fanlari asosiy jihatlari o‘quvchilar e‘tiborini jalb etish;
- doimiy ravishda idrok etishni murakkablashtirib borib, o‘quvchilar ijodiy tashabbuskorligi va o‘quv-biluv faoliyati mustaqilligi ko‘lamini kengaytirish, ko‘p tomonlama

o‘quv fanlariaro aloqadorlikni samarali yo‘lga qo‘yish uchun didaktik vositalarning har xil turlarini qo‘llab, o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- hozirgi zamon talablari asosida bilim oluvchilar ilmiy dunyoqarashini matematikaning ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlari bilan aloqadorligi vositasida, ijtimoiy hayot bilan hamohang shakllantirish.

Fanararo bog‘lanish tahsil oluvchilarning ko‘pgina fanlar sohasidagi, shu jumladan, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari fanini o‘rganishda ham zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishida ham muhim vazifani bajaradi.

HFXA – integratsiyalashgan fan. Uning asosi tabiiy, texnika va ijtimoiy fanlar rivojlanishining o‘zaro bog‘lanishidagi kompleksli mazmunlarida shakllangan. HFXA kursi insonlar va jamiyatning muhofazasi mexanizmlari hamda qonuniyatlarini o‘rganadi. Biroq HFXA ushbu fanlardagi ma‘lumotlarning bir qismini olishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Aksincha, HFXA biologiya, fizika, kimyo, ekologiya kabi fanlar tomonidan o‘rganiladigan yangi ko‘rinishlarni, mavjud obyektiv qonuniyatlarni o‘rganish imkonini berib, shu tarzda o‘quvchilarning integratsiyalashgan bilimini yanada mukammalroq va amaliy bo‘lishiga yordam beradi.

O‘quv jarayonida HFXAning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasini ta‘minlovchi 3 turdagi fanlararo bog‘lanishni (integratsiyani) ajratish mumkin:

**1. Oldindagi (ilgarigi).** O‘qituvchining u yoki bu savolni batafsil o‘rganayotganida o‘quvchilarning boshqa fanlardan o‘zlashtirgan bilimlariga tayanadi. Masalan, o‘quvchilar “Zilzilalarning oqibatlar. Aholi va hududlar muhofazasi” mavzusida o‘quvchilar geografiya fanidagi yer osti qatlamining tuzilishi, zilzilalarning hosil bo‘lishi to‘g‘risidagi olgan bilimlariga tayanadilar.

**2. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan.** Bir qator aniq ma‘lumotlar, tushunchalar, dalillar bir vaqtning o‘zida ham HFXA fanida va boshqa fanlar doirasida o‘rganilganida amalga oshadi. Afsuski bunday bog‘lanishlar tasodifiy holatlarga bog‘liq bo‘lib, biroq, mukammal rejalashtirilgan va yuqori darajada tashkillashtirilgan o‘quv tarbiyaviy jarayonda mos keluvchi aloqalar asosiy bo‘lib qolishi lozim.

**3. Istiqbolli.** HFXA bo‘yicha o‘rganilayotgan ma‘lumotlar boshqa fanlardan ilgarilab ketishini nazarda tutadi. Masalan, 7-8-sinflarda o‘quvchilar halokatli kimyoviy hamda radiofaol moddalar bilan Kimyo fani o‘quv kurslarida tanishishidan oldin o‘rganib bo‘ladilar.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘quv fanlariaro aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘quv fanlariaro aloqadorlik ta‘minlangan pedagogik sharoitda o‘qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda mashg‘ulot o‘tuvchining tutgan o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatish lozim.

**Adabiyotlar:**

1. Baxriddinova N.M., Sulaymanov S.S. Hayot faoliyati xavfsizligi. -Buxoro, 2019. - 263 bet.
2. Gazinazarova S., Ibragimov E., Yuldashev O., Asilova S. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T., 2010.
3. Ishmuxamedov R.J. Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T.: “Nihol” nashriyoti, 2013.
4. Nigmatov I., Tojiyev M. X. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. -260 b.